

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

IFODALI O'QISH PRAKTIKUMI

fanidan ma'ruza matnlari

Tuzuvchi: S.Matyakupov

NUKUS – 2011

Ifodali o'qish tarixidan

Reja:

1. Ifodali o'qishning maydonga kelishi
2. O'rta Osiyo roviylari
3. O'zbek adabiyotida ifodali o'qishning maydonga kelishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.

Badiiy adabiyot paydo bo'lishi bilan uning ifodali o'qilishi, og'zaki ij-rochiligi ham maydonga keladi. Badiiy adabiyotning shakillanish bosqichlari g'oyat murakkab, rang-barang bo'lgani kabi, uning og'zaki ijrochilik taraqqiyoti ham ziddiyatlidir. Jumladan, adabiyot va san'at hali muayyan ma'noda sinkretik xarakterga ega bo'lgan qadimgi davrda badiiy va ifodali o'qish san'ati ham sinkretik xarakter kasb etgan. Chunki, bu davrda badiiy yaratuvchilar ayni chog'da uning ijrochilari sifatida ham dong taratganlar. Badiiy so'z san'atkori xalq o'rtasida ijodkor emas, balki ijrochi sifatida ko'proq e'tiborga ega bo'lgan. Jumladan, "Avesto"ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijro-sida adiblar sifatidagina emas, balki so'z sehri bilan mo"jizalar ko'rsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta e'tibor qozonganlar. Zotan, o'zbek badiiy so'z ustalari san'atining sarchamlashlari tarixining juda uzoq katlamlariga borib taqaladi. Adabiyotshunos Notan Mallayev ta'qidlaganidek "... badiiy so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ko'p zamonlar ilgari og'zaki ijod shaklida paydo bo'ladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tadi". Tarixiy taraqqiyot davomida adabiyot bilan birga ijrochilik san'ati ham rivoj topa boshladи.

Masalan: O'rta Osiyo shoirlari bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis-anjumanlarda, keng mehnatkash xalq orasida ijro etuvchi san'atkor-lar-roviylar toifasi paydo bo'ladi.

Tojik adabiyotining asoschisi Abu Abdullo Radakiy roviylar haqida quyidagilarni yozadi:

Shoir Shahidu, Shuxra, Farolovi.

V-in digaron ba jumla hama rovi.

Tarjimasi:

Shoir Shahidu, Shuxra, Farolovi.

Va shuning kabilar barchasi rovi.

Bundan ko'rindaniki, shoirlilik iqtidoriga ega bo'lgan Shahid, Shuxra, Faro-loviy kabi tarixiy shaxslar roviylik, ya'ni she'rxonlik badiiy so'z ijrochi-ligi bilan shug'ulangan.

Roviylik va roviylar haqida tarixiy manbalarda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Nizom Aruz Samarqandiy ma'lumotiga qaraganda Firdav-siy "Shox-noma"ni ijod etgan, Ali Daylam unga xattotlik, Abudulaf roviylik qilgan.

Abu Abdullo Rudakiyning roviysi bo'lgan Majid ismli tarixiy shaxs haqidagi ma'lumotlar ham qiziqrildir. Mashhur tarixshunos A.T.Tohirjonov Ro'dakiy asarlaring Majid ismli professional ijrochisi bo'lganligini e'tirof etadi.

Yirik tojik yozuvchisi, Tojikston fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Soti Ulug'zodaning ma'lumotlariga ko'ra "roviylar" - badiiy o'qish ustalari bo'lib, xaloyiq orasida Ro'dakiy, Daqiqiy, Shahid Balhiy, Abdushukur Balhiy va boshqa o'nlab o'zlariga zamondosh va o'tmisht shoirlari asarlarini maxsus ohang bilan o'qirdilar. Xususan, Ro'dakiyning yoqimli she'ru qo'shiqlari ularning og'zidan tushmasdi.

Ulkan tarixshunos Ye.E.Bertels ham o'rta asrlarda roviylar toifasi mav-judligini e'tirof etadi.

Ko'rinadiki qadimgi badiiy so'z ijrochiligining butun bir yunalishi o'ziga hos maktabini tashkil etuvchi roviylar toifasi katta shon-shuxrat va ijtiomiy mavqeiga ega bo'lgan. Lekin jamiyat taraqqiy qilishi bilan roviylik tarmoqlanib, XV asrlarga kelganda, mustaqil badiiy ijrochilik ko'rinishlari va ularga mansub ijrochilar toifasi maydonga kela boshladi. Jumladan Alisher Navoiy XV asrlarga kelib badiiy so'z ijrochiligi san'atining voizlik, qissaxonlik, badixago'ylik, bazdago'ylik, dostonxonlik, qasidaxonlik, g'azalxonlik san'ati shakllanib yetilganligi haqida mufassal ma'lumot beradi.

Husayin Voiz Koshifiy, Muin Voiz Xiraviy, Xoja Muayyan Mehnagiy, Mulla Kal'on Voiz Samarqandiy, Qozi O'shiy, Mavlono Riyoziy, Bahovuddin Va-lad, Jalolidin Rumiy kabi zabardast so'z san'atkorlavri badiiy so'z ijrochi-ligining bu davrda Sharqda mashhur bo'lgan vakillaridir.

O'zbek badiiy so'z ijrochiligi san'atiga hos bo'lgan bedilxonlik, navoiy-xonlik, fuzulixonlik, mashrabxonlik bilan birga, qissaguyluk, hikoyaguyluk, latifaguyluk, navhagarlik, ertakchilik, kulguli hikoyago'ylikning taraqqiyoti bu san'atning juda qadimiy boy tarixga, ma'lum an'anaga ega ekanligini ang-latadi.

O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tibor alohida mavqe kasb etadi.

O'zbek pedagogikasi tajribalari, ifodali o'qishni quyi sinflaridan boshlab mashq qilishi va uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib bori-shini taqozo etadi.

Bu tasodif emas, albatta. Chunki ifodali o'qish san'ati bolalarning badiiy didini shakllantiribgina qolmay, ularning ma'naviy chiniqishida xotirasi-ning mustaxkam-lanishida ham yetakchi o'rin egallaydi.

O'tmishda she'rni tushinib o'qishga kata e'tibor berilganligini Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi:

Yodimda mundoq kelur bir majoro
Kim tufuliyat chog'i maktab aro,
Istabon tashhisi xotir ustod,
Nazim o'qiturkim ravon bo'lsun savod,
Nasrdin ba'zi o'quv ham doston
Bu "Guliston" yangiligu ud "Buston".

Manga ul holatda tab'i bul havas,
 "Mantiq ut-tayr" aylab erdi multamas.

Buyuk shoir bolalik va yigitlik paytlaridayok ellik ming bayt ,ya'ni yuz ming misra she'rni yod bilgan va ulardan zavklangan. Bu haqda shoir shunday deydi: "Bulardan dog'i boshqa yigitligim zamoni va shabob ayemi avonida ko'-proq she'rda sehr va soz va nasrda fusun parvoz shuaroning shirin ashyori va rangin ad'yotidan ellik mingdan ortiq yod tutubmen va alar zavq va xushgoligidan o'zumni ovutubmen".

XX asr boshlarida O'zbekistonda ham ifodali o'qish san'ati sahnadan keng o'rinni olgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur singari yetuk pedagog rejissyorlar hamda N.Isomiddinxo'jayev, Sh.Inoyatov, X.Yunusov kabi mahoratlari yoshlari badiiy o'qishni sahnaga olib chiqqan targ'ibotchilar bo'ldi. Ular teatr sahnalarida spektakllar boshlanishidan oldin yoki antrakt paytida parda oldida chiqib she'rxonlik qilganlar.

Madrasa va machitlar qoshidagi eski mahalliy maktablar "usuli qadimiya" o'rniga, Hamza, Avloniy va Ayniylarning yangi "usuli jadidiya" maktablari maydonga keldi. O'sha davr ikki xil jadid maktablari bo'lib, birida boy bola-lari o'qitilgan, birida mahalliy burjuaziyaga kadrlar tayyorlansa, ikkinchisida mehnatkashlarning bolalariga boshlang'ich bilim berilar ekan.

Xamza, Avloniy va Aynilar o'zlari ochgan yangi usuldagagi mактаб o'quvchilari uchun, "Engil adabiyot", "O'qish kitobi", "Adabiyot yohud milliy she'rlar", "Bi-rinch muallim", "Ikkinchi muallim" kabi o'qish kitoblari yaratgan edilarki, ularda ifodali o'qishga alohida e'tibor berilgan.

Maktab maorif sohasi kun sayin rivojiana boshlandi. Adabiyotni o'qitish masalalari "Nashri maorif", "Maorif va o'qituvchi" kabi jurnal sahifalarida tez-tez muhokama etila boshlandi. 101 yilidayoq yetti yillik maktablar uchun ilk bor adabiy o'qish dasurlari tuzildi. Bu dasturlarda adabiy o'qish, matnlar tanlash, bu matnlar qay yo'sinda o'tilganda bolalarning yozma va og'zaki nutq malakalarining o'sishiga yordam berishi mumkinligi haqidagi masalalar aks et-di.

Mazkur dasturlarda badiiy asarlarni ifodali o'qishga alohida ahamiyat beriladi. "Adabiy asarlarni o'qish,-deyiladi dasturning "bayonnomma" qismida, anglatmoq va tushintirmoq uchun o'qishning eng birinchi va asosiy vazifalarini, o'qigan narsaning nafisligini ochmoq ham shunga taalluqli hollarni bolalarga o'qitmoqdir.

Keyingi dastur va qo'llanmalar yanada takomillashtiriladi va ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tibor ortib boradi. Bugungi kunga kelib, ifodali o'qish san'atining bolalar bog'chasidan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha dasturli tarzda mustahkam o'rinni egallanganligi va fanning bu sohasiga oid turli qo'llanma hamda xrestomatiyalar yaratilayotganligi ifodali o'qish san'atiga bo'l-gan e'tiborning yorqin namunasi bo'la oladi.

Notiqlik san'ati tarixidan

Reja:

1. Notiqlik san'atining shakllanishi.
2. Ijodkor notiqlarining hissalarini
 (Aristotel, Demosfen va Sitseron).

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.

Notiqlik san'atining tarixi juda uzoq bo'lib, u eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Yunonistonda aristokratiya, demo-kratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlisla-rida, senat kengashlarida, sud ishlarida va yig'ilishlarda respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lган.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyoja aylana borgan. Notiqlik san'atining yirik namoyondasi Sitseron bu san'atga katta baho beradi. U ikki xil san'atni - lashkarboshilik va notiqlik san'atini tan oladi. Notiqliknинг nihoyat darajada og'ir va sermashaqqatligi, shu bilan bir qatorda, juda sharafli ekanligini chuqur his qilgan Plutarx ham bu san'atni hayotiy zaruriyat, deb biladi.

Notiqlik san'atining keng ko'lamma qanot yeyishi esa, o'z navbatida uning sud notiqligi, harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi shahobchalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Sudda gapiriladigan chiroyli nutq o'rnini, endi-likda aniq qonuniyatga ega bo'lган sud notiqligi egalladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, notiqliknинг yana bir turi - epideytik, ya'ni tantanali nutq uslubi paydo bo'ldi. Notiqlik san'ati qancha tez rivoj topmasin, baribir u adabiy faoliyatga qo'shilmas, chiroyli nutq matnlari esa biror yerda nashr etilmas edi.

Epideytik notiqligida baland parvoz so'zlar ishlatilar, shuning uchun ham bunday nutq matnnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilar edi. Binobarin, logograflar o'zlaridan oldin o'tgan salaflarining merosiga va xalq og'zaki ijodiga murojaat eta boshladilar. Shu tariqa chiroyli so'zlash san'ati - no-tiqlik san'ati asta - sekin shakllanib, badiiy adabiyotning ravnaqida katta rol o'ynagan: tragediya, komediya va roman janrlarining paydo bo'lishiga ijo-biy ta'sir ko'rsatdi.

Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shaklla-nishiga, notiqlik san'atining nazariyasidan iborat bo'lган "Ritorika" ilmi-ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdag'i barcha shoirlar va notiqlar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratilgan nutq matnlari nasriy va poetik ijod na'munasi hisoblangan. Bunday ijodkor notiqlarning nomi o'z mamlakati doi-rasidan chiqib, jahonga ma'lum bo'lган. Aristotel, Demosfen va Sitseronlar shular jumlasidandir.

O'rta Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lган Aristotel eramizdan av-val, eir yili Stagirda shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax Aleksandr Makedonskiyning nabirasi podsho Aminti II soroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lган Platonga shogird bo'ladi. Platonning vafotidan so'ng 347 yili Asosga

boradi. Unga ayniqsa, zolim Germiy homiylik qiladi. Aristotel Germiy vafotidan so'ng Mitilen shahriga ko'chib o'tadi va u yerda erg' yilgacha yashaydi. 382 - yili Makedoniya podshosi Filipp 13 yoshli o'g'lining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitildenan chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gresiyada chiroyli so'zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Buning natijasida qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablarda so'z san'ati ustalari - shogirdlar yetishtirib chiqarilar edi. Keyinchalik chiroyli so'zlar haqida qo'llanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning "Ritorika" nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur "Poetika" nomli asaridan so'ng, ya'ni eramizdan oldingi 330 yillarda Afinaga so'nggi marta qaytib kel-ganda yozgan edi.

Aristotelning "Ritorika" si uch kitobdan tashkil topgan. Asarning bi-rinchi va ikkinchi kitoblari, asosan chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr va mu-lohazalardan iborat bo'lsa, uchinchi kitobida nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi.

Aristotel notiqlik san'atini 5 qismga bo'lib o'rgatadi:

1. Materialni kashf etish.
2. Materialni joylashtirish shakli.
3. Materialni eslab qolish.
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri eks ettirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish. Aristotel fikrlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Umirini ona - Vatanining gullab yashnashiga bag'ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi eir yili Afinada o'ziga to'q oilada dunyoga keladi. Uning otasining ismi ham Demosfen bo'lib, qurol - yarog' usta-xonasining egasi edi.

Bo'lajak notiq besh yoshga to'lganda otasidan ajraladi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalar tarbiyasi va meros vaqtincha tog'asiga topshiriladi. Tog'asi esa barcha boyliklarni qo'lga kiritib olgach, bo-lalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosfen juda nimjon va kasalmand o'sadi. Demosfen voyaga yetgach, tog'asi faqat unga qullari, uyi va uy jihozlari hamda pulining ma'lum bir qisminigina berib aldaydi. Demosfen tog'asidan mol - mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so'-raydi. Tog'asi bundan bosh tortgandan keyin sud orqali undirib olishga qaror qiladi.

Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrida meros ishlari bo'yicha mashhur bo'lgan advokat Isey maktabida ta'lim oladi. U to'rt yil davo-mida qunt bilan o'qib, ko'pgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid va faylasuf Platonning tanlangan asarla-rini puxta o'rganadi. Bo'lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz martaba qayta ko'chirib yozib, uni deyarli yoddan o'zlashtiradi.

Demosfen o'qishni tugatgach, tog'asi bilan sudlashadi va bu sud besh yil da-vom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo'lgan kurash bo'lajak notiq xarakteri-ning toblanishida, bir so'zli va matonatli bo'lishida katta rol o'ynadi.

Demosfen notiqlik bilan shug'ullanishidan avval o'z ustozи yo'lidan borib, bosh-qalarga sudda so'zlaydigan nutqining matnini yozib berar va bu ishlari uchun yax-

shigina haq olar edi. Bora - bora nutqiy matnlar yozish Demosfenni qo'4iqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida ijtimoiy faoliyatini vatan-ning ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi. Yesh notiqning xalq oldidagi bi-rinchchi nutqi ayanchli holda to'palon, kulgu, qiyqiriq, hushtak chalib mas'haralash bilan qarshi olinadi. U o'z nutqni tuga-tolmay minbardan tushishga majbur bo'-ladi.

Nihoyat uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so'ng Demosfen o'z maqsadiga erishadi: mashhur notiq bo'lib yetishadi. Ammo, shunga qaramay, u hech qachon tayy-orgarliksiz nutq so'zlamas, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, har bir so'z ustida puxta o'ylar, jumlalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. Ulug' notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo'ldiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasini edi.

Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 10e yilda Rimdan uzoq bo'limgan Afina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Uning bolalik yillari Arpina shahriga qarashli yerlarda o'tadi. Otasi o'z farzandiga yaxshi ta'lim tarbiya be-rish maqsadida Rimga ko'chib o'tadi. Sitseron u yerda murabbiylari qo'lida tahsil ko'radi, yunon tili va dabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so'z ustalarini Litsiniy Krass va Mork Antoniy kabi notiqlardan so'z san'ati-ning nozik sir - asrorlarini o'r-ganadi, ularning ajoyib nutqlarini ting-laydi. Bo'lajak notiq, ayni vaqtida falsafa bilan ham shug'ullanadi. Lekin uni ko'proq notiqlik san'ati qiziqtiradi.

Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so'ng, g't yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so'zlashga jur'at etadi. U avval grajdanlik, so'ngra jinoiy ish jarayoni bo'yicha gapiradi. Biroq, uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli mashhur notiqlar qarshi chiqadi. Shundan keyin u ritorika va fal-safa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta'lim oladi, mashhur so'z ustalaridan o'rganish niyatida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini ke-zib chiqadi.

Sitseron Osiyoga sayoxat qilib, notiqlik san'atining sirlarini o'rganib yurgan vaqtida Rim hukmdori Sill vafot etadi. Shundan so'ng yosh notiq Rimga qaytib keladi va 31 yoshidan boshlab davlat ishlarida ishtirot etadi.

O'zbek notiqlikligi tarixidan

Reja:

1. Notiqlik san'ati ommaviy janr sifatida.
2. Notiqlik nazariyasi sohasiga doir qimmatli asarlar.
3. Mavlono Irshod buyuk notiq sifatida.
4. Qadimgi o'zbek notiqlari haqida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.

- 6.A.Ahmedov, "Notiqlik san'ati", "O'zbekiston", T., 1967.
 7.M.Afzalov, "Yuz og'iz dono so'z", "Fan va turmush" jurnali, 7-son, 1966.
 8.S.Inomxo'jayev, "O't mish Sharq notiqligi", "O'zbekiston", T., 1972.

Notiqlik o't mish so'z san'atining eng barkamol ommaviy janrlaridan bo'-lib, bu san'at musulmon sharqida voizlik deb atalgan. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko'tarilgan edi. Umuman, o'rta asrlarda fan va madaniyatni rivojlantirishda Xorazmiy, Abunasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Navoiy kabi ulug' siymolar katta hissa qo'shganlar. Ular yashagan davr-ni uyg'onish davri deb ataganlar. Bu davrda ilm fan, adabiyot, san'at va madani-yatning ravnaq topgan yillari bo'lди. Adabiyot, san'at, fan va madaniyatning targ'ibotchilari bo'lган bu allomalar voizlik san'atini ham rivojlantirishga muhim hissalarini qo'shganlar.

IX- X asrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sinolar faqat zamonalarining ilm - fani bilan chegaralanib qolmay notiq ham bo'l-ganlar. Notiqlikning rivojlanishi shakllanishiga katta e'tibor bergenlar. Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnama" da notiqlik san'ati haqida ba-tafsil to'htalib o'tilgan. Muallif notiqlikni ulug'laydi. Notiqlik juda uzoq tarixga ega, ana shu davr ichida u shakllanib bordi. Bu tarixiy jarayon nasldan-naslga meros qolishga arzigulik an'analar qoldirib ketdi. Hatto muallifning ta'kidlaganiga qaraganda, barcha xunarlar ichida so'z xunari buyukroqmish. No-tiqlik juda uzoq tarixga ega. Ana shu davr ichida u shakllandı, o'zgardi va kamol topdi. Albatta bu tarixiy jarayonda nasldan-naslga meros qolishga arzugulik bir qator an'analar yetib keldi. O'rta Osiyoda juda ko'p notiqlar yetilib chiqdi. Faqat yetishib chiqqan emas, balki ular notiqlik asarlarini yaratib, butun sharqqa mashhur bo'lganlar. Jumladan Voiz Mavlono Riyoziyning "Abvodur 3 jinon", Voiz Nazviniyning "Ziloli maqol", Voiz Mirvaniyning "Ahsanul ahadis", Muhammad Bobur binni Muhammad Voizning "Hidoyatun tahvim", Mul-lakalon Voiziy Samarqandiyning "Ravzatul voizin", Qozi O'shiyning "Muxta-hun najjor" asarlari va boshqa bir qator mohir so'z ustalari o'zlarining ri-solalarini yaratib, notiqlik nazari-yasi sohasida ham qatta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bu san'atning kelib chiqish tarixi ham ancha qiziq.

Shvesar olimi Adam Mesning ma'lumotiga ko'ra ilgari podshohlar xalq oldiga chiqib davlat tizimi o'z siyosati va boshqa mavzularda nutq so'zlab tur-ganlar, ularning nutq matnlarini esa saroy xodimlari ,ya'ni devon hodimlari yozib bergenlar. Vaqt-lar o'tishi bilan bunday ishlarni mahsus so'z ustalariga topshira boshlaganlar. Mavlono Fahreddin Ali Sayfiyning "Latoyifun - tavoyif" asarlarida ta'kidlaganicha Sulton Husayn Bayqaro bir kuni Sherozga shoh Shijo' oldiga rasmiy davlat ishi bilan mu-zokora olib borish uchun bir vakil yubormoqchi bo'ladi. Arkoni davlati bilan masla-hatlashib, Mavlono Ir-shoddan boshqa munosib kishi topolmaydilar. Xullos, Irshod borib rasmiy ish-larni qisqa vaqt ichida ijobiy hol etadi. Uning mahoratiga qoyil qol-gan shoh Shijo' Irshodga javob bermay bir majlis qurib keyin ketishini aytibdi. Notiq majlisni juma kuniga tayinlaydi. Hamma majlisda yig'iladi. O'sha kuni Mavlono Ir-shod shunday nutq so'zlaydiki, yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq hamma yig'layotganini ko'rib, yana bir bunedkor kuchini namoy-ish etadi. To'satdan

kutilmagan burilish yuz berdiki, hamma birdaniga kulib yuboradi. Shoh Shijo' ham xaloyiq ham Irshodni hurmat ehtirom bilan kuzatib qo'yadilar.

O'zbek xalqi orasida ular mashhur bo'lganlar. Ulardan biri Farg'onalik notiq Qozi O'shiy bo'lgan. O'sh shahrida Qozi bo'lgani orasida juda katta obro'ga ega bo'lgan. U xalq haqida juda ko'p afsonalar, rivoyatlar kezib yuribdi. Navo-iyning "Majolis - un-nafois" asarida qo'yidagi ma'lumot berilgan.

Eronda Seiston xalqi qattiq qo'lligi bilan dunyoga dong taratgan edi. Hatto gadoga ham non bermagan. Qozi esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bi-lan yum-shataman deydi. U Seistonga borib, bir ikki kun yurib, ularning ruhiy ahvolini o'r-ganadi. Juma kuni masjidda katta nutq so'zlaydi.

Siiston xalqi topgan - tutganini minbar ostiga olib keldi. Lekin Qozi O'shiy notiqligi uchun haq olmasligini aytadi. Buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq bu xalqning hasis emasligini aksincha sahiy ekanligini xalqning mehr xazina-sini ochish uchun munosib kalit topa olishini his qiladi. Shu mutaxassis notiqlarni voizlar deb ataganlar. ularning ba'zi matnlari chiroyli va yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyat qismi nasriy she'r va she'riy shaklda bo'lgan.

Matnni o'qish, hikoya qilish va qayta ijodiy hikoyalash

Reja:

1. Matnni ifodali o'qish yo'llari.
2. Asar mazmunini tushunish.
3. She'r matni va vazni bilan tanishish.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.

Umuman, badiiy asarlardagi matinni o'rganish avvalambor uni to'g'ri o'qish bilan boshlanadi. Badiiy asarlarni to'g'ri o'qish darslarining asosini tashkil qiladi. O'quvchilar badiiy asarlarning yoki ulardan olingan parchalarini to'g'ri ifodali o'qisalar, ularning ko'z oldilaridan alohida yangi manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo'ladi. Buning uchun ifodali o'qish darslarini to'g'ri tashkil qilish o'qituvchi zimma-siga tushadi. Shuning uchun ham o'qituvchidan adabiy asar-ning badiy xususiyatini aks ettirib emotsiyal zavq beradigan qilib o'qish ta-lab qilinadi. Agarda o'qituvchi matinni yuqorida qo'yilgan talab asosida o'qiy olsa, unda asarning badiiy ta'sir ku-chini, yozuvchining maqsad va ruhiy holati-ni, tasvirlanayotgan hayot manzarasini tinglovchining ko'zida to'g'ri gadalantira oladi.

Shunga ko'ra o'quvchi ham xuddi o'z o'qituvchisi singari o'qishiga harakat qiladi, unga taqlid qiladi, uning yo'lidan borgisi keladi.

Matnni to'g'ri o'qishning asosiy yo'llaridan biri avval matn bilan tanishib chiqish

zaruriyatini tug'diradi. O'quvchi matnni bir marta ichida o'qib, notanish so'zni aniqlab olib, so'ngra matnni ovoz chiqarib ifodali o'qishga kirsa qo'yilgan maqsadga tezroq erishishi mumkin.

Ifodali o'qish bilan ijodiy hikoyalash bir - biriga juda yaqin turadi. Biror badiiy asarni yoki undan olingan parchani ifodali o'qigan vaqtida o'quvchi talaba iloji boricha muallifning fikriga yaqinlashtirib so'zlab berishga yozuvchining nutq uslubini, matnning syujeti chizig'ini va kompozitsiyasini saqlab qolishga harakat qiladi. U tinglovchilarning asar mazmunini yaxshiroq tushunishlariga undan ta'sirlanishlariga erishish uchun ifodali o'qish vosita-laridan biri bo'lgan intonatsiyadan mimika va imoshoralaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talaba - o'quvchi badiiy asar matnnini so'zma - so'z hikoya qilib bersa, qayta ijodiy hikoyalashda esa, u bilim qobiliyatini ishga solib, hikoya qilinadigan asarga erkiniroq munosabatda bo'ladi. Asosiy e'tiborni asardagi biror voqeaga qaratmay, muayyan g'oyani birinchi o'ringa qo'yyadi. Hikoya qilish jarayonida talaba o'quvchi matnni qisqartirishi undagi tushinishi qiyin bo'lgan so'zлarni lug'atdan foydalaniib ko'rib chiqishi va hikoya qilishi mumkin. Talaba o'quvchi o'qilgan matnni ijodiy qayta ishlab asosiy mazmunni saqlagan holda uni yangi shakilda bayon qilishga odatlanadi. O'z fikr - mulohazaralarini bayon qilish uchun yangi - yangi shakl va iboralarini ishlatishga harakat qiladi, ularni isbotlash maqsadida matndan parchalar, qit'alar keltiradi. Shu yo'l bilan ularning og'zaki nutqi birmuncha yaxshilanadi, fikr yuritishlari esa rivojla-nadi.

Talabalarimiz mumtoz asarni o'qiyotgan vaqtida bir muncha qiynaladilar. Buning asosiy sabablaridan biri shevaga berilib ketishi va keyin eski o'zbek so'zlarini yaxshi bilmasligidir.

Buning uchun iloji boricha shevadan qochib, adabiy so'zlashishga intilish, so'zлarni to'g'ri talaffuz etishga urinish lozim. Ayrim talaffuzi qiyin so'z-larni yod olish kerak.

Mumtoz asarlarni ifodali o'qishdan oldin matn bilan yaxshilab tanishib chiqish jarayonida yozuvchi yoki asar qahramonining kechinmalarini chuqur his etib, asar mazmunini va mantiqini to'la tushinishi lozim, bu mehnat talab va murakkab bir ishdir.

Talabalarga yordam maqsadida quyida Alisher Navoiyining "Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi" g'azalining matnnini namuna sifatida beramiz. She'rnинг matni, vazni, baytlarining nasriy bayoni.

1. Kecha kelgumidir debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha o'yqu kelmadi.
2. Lahza - lahza chiqtimu ul sho'hi badho' kelmadi.
3. Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot
Ro'zg'orimdek ham o'lg'anda qorong'u, kelmadi.
4. Ul parvarash hajridakim yig'ladim devonavor
Kimsa bormukin, anga ko'rganda kulgu kelmadi.
5. Ko'zlarining necha suv kelmay deb o'ltirmang meni
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.
6. Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim quyida qadam,
Yo'lgakim, avval qadam ma'shuqa o'tra qilmadi.

7. Ey Navoiy boda birla hurram et ko'nglim uyin,
 Ne uchunikim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.
 (A.Navoiy)

G'AZALNING VAZNI

Bu g'azal "ramali musammani maqzur" vaznida yozilgan
 Foilotun Foilotun Foilotun Foilun
 Fo-i-lo-tun Foilotun Fo-i-lo-tun Fo-i-lun

Baytning hijolarga bo'linishi:

Ke-cha-kel-gum dur-de-bon-ul sar-vi-gul-ro' kel-ma-di.
 Ko'z-la-rim-ga ke-cha-tong-ot qun-cha uy-qu kel-ma-di.

Baytlarning nasriy bayoni:

1. ul sarviqomat, gul yuzli go'zal yor tunda kelaman deb va'da berdi yu kel-madi.
 Tun bilan to tong otguncha unga muntazir bo'lib, uhlamay chiqdim.
 2. Dam-badam ko'chaga chiqib, uning yo'lini poylab, o'tirdim, jonim xalqumga ke-lib, o'lar holga kelsam ham, ul fe'li yomon, sho'x go'zal kelmadi.
 3. Oydin kecha uning yuzi kabi yorug' bo'lib turganda, o'zini ehtiyyot qilib oy-dingga chiqmagan bo'lsa, kecha xuddi mening qora kunim, hayotim kabi qorong'i bo'l-ganda ham kelmadi.
 4. U go'zal hajirida (hijirida) xuddi devona, jinnilar kabi yitg'ladimki, meni ko'r-ganda, ahvolimga kulgusi kelmagan biror kishi bormikan.
 5. Ko'zlariningdan qancha suv (yosh oqizding, deb mendan so'rab o'tirmang, bu kecha ko'zimdan yosh emas, faqat qon oqdi.)
 6. Ko'ngilda munosib sadoqatli do'stni topib bo'lmaydi, bo'lmasa yo'lga avval qadam qo'yaning qarshisidan yor kelmasmidi.
 7. Ey, Navoiy, ko'nglung (yuraging) uyini boda (moy) bilan shodu hurram et, chunki may kirgan uyga g'am qayg'u kelmaydi.
- Alisher Navoiyning ushbu g'azali sevgi mavzusida yozilgan bo'lib, aniq yor misoliga intiladi, shoir yorning sadoqatsizligi va shavqatsizligidan shikoyat qiladi. Iztirob chekkan oshiq sadoqatli yorning topilishiga shubha qiladi va nihoyat qayg'udan qutilib hurram bo'llish uchun mayga murojaat etadi. "May" esa asarda shodlik ramzi sifatida qayg'u alamga qarshi qo'yiladi. "azalni ifodali o'qiganda xuddi shu ohang, ritm sezilib turishi kerak, aks holda asar vazniga, ritmiga putur yetkazish mumkin.

BADIY ASARLARNI IFODALI O'QISH

She'riy asarlarni ifodali o'qish
 Reja:

1. Badiiy asarlarni ifodali o'qishning asosiy vazifalari.
2. Barmoq tizimidagi she'rlarni ifodali o'qish.
3. Erkin she'rni o'qish va she'riyatning xususiyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.
- 6.A.Xojiahmedov, "Maktabda aruz vaznini o'rganish", "O'qituvchi", T., 1995.
- 7.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.
- 8.A.Xojiahmedov, "O'zbek aruzi lug'ati", "Sharq" nash. T., 1998.
- 9.A.Fitrat, "Aruz haqida", "O'qituvchi", T., 1997.
- 10.A.Xojiahmedov, "Aruz vaznidagi asarlarni ifodali o'qish", T., 1999.

Tinglovchiga asarning g'oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazish ifodali o'qish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifadir. Shu maqsadda har bir talaba ifo-dali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi kerak. Uni puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi. To'g'ri, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qila bermaydi. Har qanday asarni ifodali o'qishga kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rgani-shi lozim.

She'riy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari o'qiladigan asarlarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va band qurilishiga bog'liq. Biz qo'yida barmoq va aruz she'riy tizimiga mansub asarlarni o'qish haqida qisqacha fikr yuritib, misollar keltiramiz. Barmoq tizimidagi she'rlar aruz tizimidagi she'rlardan tuzilishi va o'qilishi jihatdan farq qiladi. Baroq tizimidagi she'rlar cho'ziq va qisqa bo'g'inlarga ajratilmaydi, balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Unda misralardagi hijo (bo'g'in) larning soni bir hilda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil bo'ladi.

Qiziq, har yil yanvarda
Men tug'ilgan bir kun bor.
Ke-li-sha-di meh-mon-lar,
E-g'ib turganda ham qor.

(Zulfiya)

Bu she'rning har bir misrasida hijolar soni yettitadandir.

Qi-ziq, har yil yan-var-da
Men tu-g'il-gan bir kun bor.
Ke-li-sha-di meh-mon-lar,
E-g'ib tur-gan-da ham qor.

Baroq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Baroq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Baroq tizimi shunchalik uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay hozirgacha

eskirgan emas, balki hozir ham o'zbek poeziyasida yetakchi o'rinni egallab turibdi. O'zbek poeziyasida barmoq tizimining turi hi-joli vazndan tortib, o'n olti hijoli vazn-gacha bo'lingan o'n uch turi mavjud. Misradagi hijolarning turlicha kelishi natijasida vaznning soni ham ko'pay-ib boraveradi.

Masalan, Mirmuhsinning she'ridan olingen olingan to'rt hijoda yezilgan.

Vatan ko'rkam, - 4

Bahor o'ljam. - 4

(Mirmuhsin)

Hozirgi o'zbek poeziyasidagi she'riy asarlarning ko'pi 7, 9, 11, 12, 13 hi-jolidir. 4, 5, 6 hijoli she'rlar ko'proq bolalar poeziyasida uchraydi. Yuqorida tilga olingen she'rlar vazni bir turkimga kiruvchi hijolar guruhidan tashkil topgan va shuning uchun ular sodda vaznga mansubdir. O'zbek poeziyasida sodda bilan birga qo'shma va erkin vaznlar ham mavjud. Agar she'rning har bayti ik-ki turkimga kiruvchi bo'g'inlar sonidan tashkil topsa qo'shma vazn maydonga ke-ladi.

Masalan: Mehnatda mehnatchilar, - 7

Ezildi bu tanlar. - 6

Bizlarda chin ozodlik - 7

Bo'larkim qachonlar - 6

(Hamza)

Gruzin shoiri Shota Rustavelining Maqsud Shayxzoda va Mirtemir tomo-nidan tarjima qilingan "Yo'lbars terisini yepingan pahlavon" nomli asarlari ham qo'shma vazn namunasidir.

Barmoq tizimidagi she'rlarni ifodali o'qishga faqat hijolarning tarti-bigagina emas, balki turoqlarga ham katta ahamiyat bermog'i lozim. Chunki turoq she'rning musiqiyligini tartibga solib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, turoq she'rining ritmini va o'ynoqligini tartibga solib turuvchi asosiy omillardan biridir.

Rahmat aka
 Muborakka
 Mag'azindan
 Oldi birdan
 Qo'g'irchoq,
 Qo'g'irchoq,
 Qo'g'irchoq, Bog'chadan qiz
 Yurib tez-tez
 Borsa o'yiga,
 Tayer unga
 Qo'g'irchoq,
 Qo'g'irchoq,
 Qo'g'irchoq,

(Q.Hikmat)

Yuqorida barmoq tizimida yezilgan she'rlarda bittadan to'rttagacha turoq borligini ko'rib o'tdik. Har bir turoqda esa bir necha hijo bo'lishi mumkin.

Masalan:

Na ko'kning (fonari) o'chmasdan,
Na yulduz (sayr etib) ko'chmasdan,
Na ufq (o'ramay) yequt zar,
Na bulut (silkitmay) oltin par,
Tong kulub (boqmasdan) Jontemir,
Quyuq bir (zavq bilan) turardi.

(Uyg'un)

Mahsud Shayxzodaning "Muhammad to'pchi" balladasida esa turoqlar ichidagi hijolar 8-5 shakilda kelgan:

Ko'za olib G' chiqqan yaxshi qiz,
Go'zallarning G' xusni naqshi qiz,
Bir jon suv ber G' suving ko'p sovuq,
Kim uchun bu G' aytganing qo'shiq
U qahramon G' bo'lib kelajak,
Tez kelmasa G' kelar bir darak Yo

(Maqsud Shayxzoda)

Erkin vazindagi she'rning tarixi V.V.Mayakovskiy nomi bilan bog'liqdir. Ygirmanchi yillar mafkuraviy kurash jarayenida erkin vaznga ehtiyej tug'ildi. San'atkorlarning ko'pchiligi shu vaznda o'z kuchlarini, imkoniyatlarini sinab ko'rdilar. V.V.Mayakovskiy shunday san'atkorlarning bayroqdori bo'ldi.

"Poeziyani baland minbar, katta maydon, tinglovchilarning buyuk uyushmlariga yetkazish niyati V.V.Mayakovskiyni she'rning yangi shakl, xitob va nido shaklini izlash, minbar she'rining yangi premlarini ishlashga, hujra she'rida bo'lma-gan balandliklarga chiqarishga majbur qildi." U miflarni yangi-yangi satrlarga bo'lib tashladi. Buning natijasida poetik tilni jonli so'zlashuv ti-liga yanada yaqinlashtirdi. Ularni ifodali o'qiganingizda ritimning turlanib turishini, lirik qahramonning kayfiyati tez-tez o'zgarib borishini sezish qiyin emas.

Erkin vaznda yaratilgan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ritmik pauzaning mo'lligidir. Erkin vazndagi she'rlarda jumlalarning qisqa-qisqa bo'lishi uning jangovarlik ruhini oshiradi. Bunday asarlarda ohang, ritm, intonatsiya, urg'u kuchli bo'lganligi uchun ularni adabiy kechalarda o'qish, deklamatsiya qilib aytish qulaydir. Erkin vaznli she'r tuzilishi jiha-tidan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, misralar hijolarining soniga emas, balki ohang, ritm va intonatsiya mutanosibiligiga asoslanadi. Erkin vazn ho-zirgi o'zbek poeziyasida Hamza Hakimzoda Niyezining jangovar poetik asarlari orqali kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik Hamid Olimjon, "afur "ulom va boshqa shoirlar ijodida yanada kamol topdi. Hamid Olimjonning "Baxtlar vodiysi" she'ri bu vaznning go'zal namunasidir:

Dillar,
 havas bilan to'ladi,
 Yuzlar,
 sevinch sepib kuladi.
 To'rt tomoni osmon bilan
 o'ralgan vodiy
 Kundan-kunga,
 husni ortgan oydek
 to'ladi.
 Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...

Bu she'rni ifodali o'qiganda, she'rning mazmuni va o'ziga xos erkin shak-lidan kelib chiqqan maqlulroq. Buning uchun shoirning fikri, hayajonini chuqur his etishga intilish kerak.

Muallif bunedkor xalqimizning fidoyi mehnati tufayli diyerimizning gullab-yashnayetganini zo'r pafos bilan ko'ylaydi. Lirik qahramonning jo'shqin kayfiyatini, his tuyg'usini to'laroq ifoda etish uchun unga mos so'zlar tanlaydi va satrlari zinapoyalarga bo'lib yuboriladi. Zero fikrning jo'shqinligi va publitsistik ruhda bayen etishi erkin she'rga xos muhim xususiyatlardan biri-dir.

Mirzo Tursunzodaning "Osiye ovozi" nomli she'ri yuqoridagi fikrlarning yerqin dalilidir.

Osiye so'ylaydi
 tinglang ovozin Yo
 Jo'shqin dare mavjin,
 haykiriq sozin,
 Osiye uyg'ondi,
 uxlamas uyg'oq
 Rostlik, do'stlik bo'ldi
 u bilan o'rtoq.

Umuman erkin vazndagi she'rlarni ham ifodali o'qishdan oldin turoq va hijolari aniqlanib, pauza va urg'uli so'zlar belgilab olinsagina asar g'oyasiga tushinib yetish oson bo'ladi.

Har qanday she'r mustahkam hayetiy zaminga ega. Kundalik turmushda shunday paytlar bo'ladiki, kishi beixtiyer qofiyalashtirib gapirib yuboradi. Bu hol garchi she'riy element bo'lsa ham, biroq uni hali she'r deb bo'lmaydi. Gapiruvchi biror narsadan g'oyat ta'sirlangan, ruhlangan paytda shunday holat yuz beradi.

She'riyat, shu kabi mustahkam hayetiy asoslari borligiga qaramay, u shartli nutqdir. Shuni aytish kifoyaki, opera, balet, muzika kabi san'at janrlari ham mustahkam hayetiy va ijtimoiy asosga ega. Lekin ularning barchasi hayetning shartli ifodasi, badiiy in'ikosidir.

A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov, H.Olimjon, Uyg'in, "afur, Erkin Vohidov

kabi shoirlarning she'riy asarlari ham hayetiy voqealik asosida yaratilgan va ularning har biri o'ziga xos xususiyatiga ega. Shu sababli ularni o'qishda har bir shoir poeziyasiga xos xususiyatlarni, har bir asarning tarkibiy, o'ziga xos nafosatini ham ochishga e'tibor beriladi. Shundagina ifodali o'quvchi asarga xos xususiyatlarni mu-kammal va puxta o'rganib, o'zlashtirib oladi. O'rganish va o'zlashtirish jarayeni esa g'oyat serrqirra va murakkab bo'lib, bilim mehnat va iste'dod talab qiladi.

Shoir o'z asarini yaratish jarayenida hayetiy nutiqni shartli ixchamlashti-radi, muayyan sintaksistik qurilishlarga asoslanib she'rlar tuzadi va ayni paytda, hayetiy nutiqni saqlab qolishga ham harakat qiladi. Shuning uchun ham she'riyatda tasvirlangan real voqelik, mutanasiblik badiiy haqiqat deb atala-di. She'rni shartli nutqqa aylantiruvchi omillar juda ko'p. Bu-asosan vazn, qofiya, band kabi she'riy mazmun muayyan shaklda ifoda etuvchi komponentlar-dir. Bu omillarning barchasi muayyan adabiy qonun - qoidalar atrofida bir-lashdiki, she'riyatni ularsiz tasavvur etish mumkin emas.

Nasriy asarlarni ifodali o'qish

Reja:

1. Ertaklarni ifodali o'qish.
2. Hikoyalarni ifodali o'qish.
3. Qissa va romanlarni ifodali o'qish.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.
- 6.A.Ahmedov, "Notiqlik san'ati", "O'zbekiston", T., 1967.
- 7.M.Afzalov, "Yuz og'iz dono so'z", "Fan va turmush" jurnali, 7-son, 1966.

Nasriy asarlarni ifodali o'qish ham katta mahorat talab qiladi. Chunki, adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda oldinga surilgan fikrlar yezuvchi duneqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'qituvchi matn tanlashda juda ehtiyet bo'lmg'i lozim. Matn yuqori saviyaga, yuksak badiiy qimatga ega bo'lgan, shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiyaga oid bo'l-mog'i kerak. Olingan parcha hajm jihatidan juda katta bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, matnda dialoglar kam bo'lishiga e'tibor berish kerak. Shundagina og'zaki nutiqni o'stirish badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tu-shunish, obrazlar tizimini o'rganish, umu-man, yezuvchining hayetga bo'lgan mu-nosabatini anglash kabi vositalar ifodali o'qish darslari oldiga quyiladigan qator talablarga javob berishi mumkin.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishni hammaga yaqin va oson bo'lgan xalq og'zaki ijodiga mansub ertakdan og'zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri hisoblanadi.

Unda fantaziya va mubolag'a kuchli bo'lib, xalq hayeti, urf-odatlari, intilish va kuraschlari, orzu-armonlari aks ettiriladi. Shunisi xa-rakterlik, deyarli barcha ertaklar asosida ezgulik bilan yezuvlik o'rtasidagi keskin kurash turadi va albatta, ezgulik tantanasi bilan yakunlanadi.

Ertaklarni ifodali o'qishdan oldin, o'zbek xalq ertaklarida turli tuman shaklda ishlatiladigan an'anaviy muqaddima namunalaridan misollar keltiri-lib, ularning bir-biridan farqi tushuntiriladi. Masalan, "Tulki bilan to-vus" ertagini ertagi, echkilarning burtagi qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, turg'ay to'qimchi ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor...

O'zbek xalq ertaklaridan "Oypara"ning muqaddimasi undan farq qiladi: "Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, o'tkan zamonlarning birida Husanboy ismli kambag'al bir bechora yigit bo'lgan ekan, uning yetarli joiy ham yo'q ekan. U tug'ilib o'sgan qishlog'idai eski masjidning hujrasida yetib yurar ekan." E'tibor berilsa, ikkala ertakning muqaddimasi ham boshqacha o'qilishini sezish qiyin emas. Masalan, bir-inchi ertak muqaddimasi sajda yezilgani uchun ifodali o'qiganda ritmga ham katta e'tibor beriladi.

Ikkinci ertak muqaddimasi esa undan butunlay farq qiladi: "Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan..." Bu parcha xuddi muallif bayeni vazmin o'qiladi.

Hikoya epik turning kichik janri bo'lib kishi hayetidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi, ammo shu voqeaga qadar bo'lgan va undan keyin ro'y bera-digan voqealarini bat afsil bayen etmaydi. Shunisi xarakterlik hikoyada qahramon hayetidan kichik bir epizodi olinib, unda hayetning muhim, tipik ko'-rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi.

O'quvchi hikoyani ifodali o'qishda bu janrning ana shu jihatlarini e'ti-borga olishi matndagi nutqi, tabiat tasviri dialoglar hamda qahramonning ich-ki kechinmalari puxta o'rganishi lozim. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi-ning o'qilishini ko'rib chiqaylik. Asarda Qobil bobo obrazi xonavayron bo'lgan dehkonlarning yerqin timsoli bo'lsa, amin, pristav va ellikboshilar hukmon sinfning tirik vakillari sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun o'qish jaraye-nida Qobil boboning nihoyatda soddaligi amaldorlarning esa poraxo'rligi, ikki yuzlamachiligi fuqaroni mensinmasligi ravshan sezilib turishi kerak. Shunda-gina tinglovchida Qobil boboga nisbatan achinish, mehr muhabbat, amaldorlarga cheksiz nafrat tuyg'ulari uyg'onadi.

Qissalardan bir emas, bir necha personajlar qatnashadi va ular bosh qahramon atrofida guruhashadi.

Qissalarni ifodali o'qishga kirishishdan avval ularning janr xususiyat-lariga e'tibor berish zarur. Masalan, avtobiografik qissalarda hayet osuda osoyishta tasvir etiladi. Sabit Muqonov, Sadriddin Ayniy, Oybek va Abdulla Qahhorlarning avtobiografik qissalari fikrimizning yerqin dalilidir. Bun-day asarlar asar mazmunidan kelib chiqqan holda osoyishta, shoshilmay o'qiladi.

Abdulla Qahhorning "Sinchalak", Asqad Muhtorning "Qoraqalpoq qissasi", Pirim Qodirovning "Erk", "Qadrim", mashhur qirg'iz yezuvchisi Chingiz Aytmatovning "Jamila", "Sarvqomat dilbarim", "Alvido ,Gulsari", "Oq kema" sin-gari sof badiiy qissalari o'tkir dramatizm, keskin konflikt zaminiga qurilgan va bu mazkur

asarlarni ifodali o'qishda ham o'z aksini topishi kerak.

Roman epik turga mansub bo'lib, insonning jamiyat bilan aloqasini har tomonlama keng rejada tasvirlashi hayetning ko'lAMDOR manzarasini chizishi bilan ajralib turadi.

Romanning qissa va hikoyadan farqi shundaki unda turmushning yirik muammolari qalamga olinadi. Ko'plab personajlar ishtirok etadi. Roman janri-dagi asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham shunda. Nega-ki, o'sha personajlarning har birining tabiatini, madaniy saviyasini, yurish-turishi o'zaro munosabatini, dangasa yeki chaqqonligini, qo'yingki, jamiyat haye-tidagi ishtirokini tu-shunib yetmasdan turib ifodali o'qib bo'lmaydi.

Ma'lumki, roman, o'z navbatida tanlangan mavzui va tasviriy ifoda uslu-biga ko'ra, yana bir necha turga bo'linadi. Masalan, "O'tgan kunlar", "Qutlug' qon" tarixiy roman "Quyesh qoraymas" harbiy roman "Bo'rondan kuchli" zamonaviy roman "Davr mening taqdirimda" ijtimoiy falsafiy roman "Anna Kareni-na" oilaviy - mai-shiy roman "Sarob" - ijtimoiy ruhiy roman va boshqalar. Ularning barchasi bir xil o'qilsa, ko'zlangan maqsadga hech qachon erishib bo'l-maydi. Bunday o'qish kishini charchatadi, asarga nisbatan qiziqish yo'qoladi. Tinglovchi ham, o'quvchi ham undan estetik zavq ololmaydi.

Romanning ichki turlari aniqlab olingandang so'ng, unda qatnashayetgan obrazlarning nutqi, xatti - harakati, so'zlash uslubini ham ko'z oldiga keltira bilish zarur. So'ngra romandan olingen parchani bir necha marotaba o'qib chiqib, tinish belgilari, urg'u, pauza va boshqa zaruriy narsalar aniqlab chiqilsa maqsad yanada ravshalanadi. Bu vazifalarni bajarib bo'lingandan keyin ifoda-li o'qishga kirishsa bo'ladi.

Masalan:

"Yo'lchi turmada yasharkin" (pauza), unga tug'ishgan (qisqa pauza) og'a - ini singari mehribon bo'lgan Petrov bilan birinchi uchrashuvdan boshlab (pauza), to so'nggi damgacha o'tgan hayetini hozir o'z fikridan bir - bir kechirdi (pauza). Petrovning (qisqa pauza) u uchun yangi (pauza) yerqin (qisqa pauza), ulug' bir dune ochgan (pauza), unga alangali umidlar bag'ishlangan (pauza), uning kuchlariga chin qahramonlik maydonini ko'rsatgan (pauza), olmosday o'tkir (qisqa pauza), quyeshday porloq (pauza), ammo shu bilan barobar sodda (pauza), har bir mehnat-kashning (qisqa pauza), har bir ezilganning yuragiga yepishadigan fikrlariga sho'ngib ketdi (pauza). Qanday ishslash kerak (pauza), nima qilish kerak (pauza), nimadan boshlash kerak (pauza), bu xususda (qisqa pauza), Petrov uqtirgan ken-gashlarini chuqur mulohaza qildi (pauza). Faqat (pauza), qalbini to'ldirgan ulug' fikrlarni kimga ochadi (pauza) va qanday ochadi (pauza) Buning uchun so'zamol bo'lish kerak-ku (pauza). Ilgari juda qulay bo'lib ko'ringan narsa (pauza) endi atroflicha o'ylaganda (pauza), hazilakam emasligi ravshanlashdi (pauza): "Bunday qilaman" (pauza) - labini qimirlatib o'z-o'ziga shivirlari yo'lchi (pauza), - avval shunday odamlarni tortamanki (pauza), o'zimga qanday ishonsam (pauza), ularning diliga shunday ishongan bulay (pauza)... Ular shunday odamlar bo'lsinki (pauza)... Petrovning yo'liga kirgandan keyin (qisqa pauza) o'tta ham (pauza) suvgaga ham o'zini urishga tayer ko'rsatsin (pauza), joni dili bilan ishga beril-sin (pauza). Eng yaqinlarimdan (pauza) sinaganlarimdan boshlayman (pauza). Bu ishda shoshqaloqlik (pauza), yengillik

yaramaydi (pauza). Jamiki boylarga o't bilan suvday (pauza). Uning ukasi Jumabay (pauza).

Ishchi yigit (pauza) tramvay yo'lini tozalashdan boshi chiqmaydi (pauza).

Prozaik asarlarni ifodali o'qishda tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Pauza talab qilinadigan o'rinalar hisobga olinishi va unga amal qilinishi zarur. Chunki, ko'p xollarda talabalar tinish belgilariga e'tibor bermay o'qiydilar.

Dramatik asarlarni ifodali o'qish

Reja:

1. Dramatik asarlarni ifodali o'qish.
2. Monolog va dialog haqida ma'lumot.
3. H.H.Niyeziyning "Boy ila xizmatchi" dramasi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Q.Oripov, M.Obidova, "Ifodali o'qish", "O'qituvchi", T., 1994.
- 2.K.Jo'rayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish", "O'qituvchi", T., 1968.
- 3.S.Inomxo'jayev, A.Zunnunov, "Ifodali o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1978.
- 4.S.Inomxo'jayev, "Badiiy o'qish asoslari", "O'qituvchi", T., 1981.
- 5.T.Qudratov, "Nutq madaniyati asoslari", "O'qituvchi", T., 1993.

Dramatik asarlarni ifodali o'qishga kirishishdan avval drama haqida qisqacha umumiy ma'lumot berish lozim.

Dramatik asarda epik va lirik asarlardagi kabi muallifning bat afsil bayeni va hikoyasi bo'lmaydi, drama kishini faqat harakatga ifodalaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, dramatizm faqat so'zlashuvdagina emas, balki bir-biri bilan so'zlashayet-ganlarning jonli harakatidan iboratdir.

Drama badiiy adabiyetning asosiy turlaridan bo'lib, monolog va dialoglar asosida ko'rindi. Shuning uchun ham u roman, qissa, hikoya va she'riy asarlar-dan tubdan farq qiladi.

Dramatik asarda muallif qahramonlarning turli kayfiyatini, holatini va xatto ichki hissiyetini ham ularning nutqi va xatti - harakati orqali bayen etadi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlari hayeti haqida hikoya qilmay, balki ularning o'zlarini harakatda ko'rsatadi. Maksim Gorkiy dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab, mazkur tur adabiyetining eng qiyin shakli ekanini, unda har bir shaxs muallifning izohsiz, o'z so'zi va ismi bilan hara-katlanishini uqtiradi. Dramada barcha harakatlar qahramonlarning xususiyat-larini ochishning asosiy vositalaridir.

Dramatik asar qahramonlarining nutqi epik asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik asarlarda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauzalar katta ahamiyatga ega.

Dramatik asarlarni qo'lga olish bilan darhol muallif izohiga ko'z tushadi. Bu izoh adabiyetshunoslikda remarka deb ataladi. Dramatik asarlarda berilgan bu izohlar

asarni sahnaga qo'yuvchi rejisserra va ayniqsa, uni ifodali o'qimoqchi bo'lgan kitobxonga qaratilganlar. Binobarin, remarka asar ishtirok-chilarining tashqi qiyefasi, yeshi, xulqi, hatti-harakatlari, qiliqlari, sahna manzarasi va boshqalar yeritiladi. Demak, muallif tomonidan bayen etilgan re-marka asarni yaxshi tushunish, rollarga bo'lib ifodali o'qish uchun juda zarur. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyeziyning "Boy ila xizmatchi" dramasiga yezilgan remarkani ko'raylik:

Ishtirok etuvchilar:

G'ofir - boyning xizmatkori, 30 yoshlarda.

Jamila - G'ofirning xotini, 16 yeshda.

Solihboy - 50-60 yeshlarda.

Xolmat - boyning xizmatkori, 30-35 yoshlarda.

Hoji ona - boyning onasi.

Poshsho oyim -

Xonzodaxon -

Gulbahor - boyning xotinlari

Qodirqul - mingboshi

Rahima xola - Jamilaning onasi

Hasan - ellikboshi

Sifat buvi

Imom

To'ra

Pristav

Qozi va boshqalar.

Birinchi parda

Solihboyning ichkari hovlisi. Ro'parada eshiklariga o'ymakorlik bilan gullar chizillgan, bir- biriga yamashtirib solingan uchta naqshli dang'illama uy. Bu uylarning oldida yezda ochilib, qishda yepilganidan naqshinkor, oynaband ra-vonlar, avvonga asl turkman gilamlari, baxmal ko'rpalari, ipak poyendozlar to'-shalgan. Shipga chinni qalpoqli zo'r qandil osilgan. Hovlining sahniga xilma-xil gullar ekilgan. O'ng yeki chap tomonda katta ko'cha darvozasi.

Muallif tomonidan bayen etilgan bu remarkani ham ifodali o'qish kerak. Remarkanining birinchi qismida asarda ishtirok etuvchi personajlarning nomla-ri, yeshi, kasbi va hatto jinslari ham bayen etilgan.

Bu matnni ifodali o'qiganda personajlarning nomlarini aniq ravshan talaffuz etib, so'ng bir oz pauza qilinadi va tiredan so'ng bayen o'qiladi.

Remarkanining ikkinchi qismi, asosan, sahna manzarasi ifodalanganligi uchun bu matnning barchasi dona - dona qilib, ifodali o'qiladi.

Dramatik asarlarni ifodali o'qishga kirishishdan avval, talabalarga mo-nolog va dialog haqida qisqa ma'lumot berib, ularning ifodali o'qilishini ko'rsatish zarur.

Jumladan, monolog grek tilidan olingan bo'lib, asar qahramonining suh-batdoshiga yeki o'ziga qarata aytilgan nuqtidir.

Monolog parda yeki ko'rinishlarning boshida kelsa, voqeа о'rni bilan birga, asarda ishtirok etayetgan personajlardan birining sahnada paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi va u bilan tanishtiradi, bulardan tashqari, monolog asar qahramonining fikr va ke-

chinmalarini ifodalaydi. Hamza Hakimzoda Niyeziy-ning "Boy ila xizmatchi" drammasidagi bosh qahramonlardan biri Jamila mo-nologi buning yerqin misolidir.

Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbilimdan ayirdilar. Si-bir., Sibir... Qanday qo'rquinchli... U qanaqa joy bo'lsa ekan Borsammikan He, men nima deyapman Qayerga ham bora olaman Meni bu temir kafasga soldilar ixtiyerimni qo'limdan oldilar. Aylanamda qancha poyloqchi, qancha qorovullar bor. (Qulab.) Men endi boy xotiniman, ha, ha, ha. Boy xotin Yo "ofirjon menga nomahram Yo O'h-o'h, qancha yig'ladim, yig'layversang ko'zingning yeshi tugab qolar ekan, ko'nikib ham qolar ekansan kishi. Mana endi yig'lamayman ham. Ko'zimda qatra yesh ham kelmaydi. Ulimga ham tik qarab turaveraman. Ne qilay Yashash uchun kurashdim, olishdim, (bosimga tuproq sochib fared ko'tardim, foydasi tegmadi, ko'z yeshlarimning ariqda oqqan suvchalik qadru qimmati bo'lindi. Bi-rov, nimaga yig'laysan, deb so'ramadi). Ha menday baxti qoraning kimga keragi bor Xonzoda bo'lsa xuddi qarg'aday go'shtimni poylab, tepamda uchadi. He shu ekan-da Yo

Albatta, bu monologni ifodali o'qishdan avval, monolog kim tomonidan, qay vaqtda, qanday holatda aytiganini tasavvur qilish lozim. Matnni ifodali o'qiyetgan vaqtda Jamilaning ana shu vaziyatdagi holatiga yaqin hollarda bo'lishga intilish kerak.

Dialoglarni ifodali o'qishga tayerlash ham huddi shu tartibda olib bori-ladi.

Dialog grek tilidan olingan bo'lib, ikki kishi orasidagi so'zlashuv degan ma'noni anglatadi. Dramatik asarlardagi qahramonlar dialogi personajlar-ning asl maqsadlari, niyatlarini, intilishlarini, his - tuyg'ularini, fikr va tushunchalarini, ruhiy kechinmalari va ularning bir-birlari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini ochib berishga, asardagi voqealarning rivojlanib bo-rishga yerdam beradi. Bunday xususiyatlar, ayniqsa, iste'dodli artistlar tomo-nidan sahnada o'ynalganda yanada yerqinroq namoyen bo'ladi. Ammo, o'qituvchi tala-balani dialog bilan tanishtirganda uni faqat ifodali o'qish orqali tanishti-radi.

Epik asarlardagi dialoglar kishilar o'rtasidagi suhbatga o'xshasa, dramatik asarlardagi dialoglar turli to'qnashuvlar asosida quriladi, shuning uchun ham dramatik asarlarni ifodalash o'qishda, mazmunini talabalarga yetkazishda undagi ma'lum harakat, turli-tuman munosabatlar va hatto personajlarning bir-birlari bilan so'zlashib, tortishib turgan vaqtlarida qilinadigan pauza ham katta o'rinn tutadi.

Bulardan tashqari, qahramonlarning tabiatini, ruhiy holatlari, ularning portreti, voqeal sodir bo'layetgan joylar va undagi sharoitlar ham asarni ifo-dali o'qishga kirishishdan oldin mashg'ulotning dastlabki paytida, ovoz chiqarmay o'qish vaqtida belgilab olinadi. Masalan, dramatik asarlarni ichdan o'qilayetgan vaqtda personajlarning o'ziga xos xususiyatlari: qaysi tabaqaga mansubligi, qanday kasb va xunar egasi ekanligi kabi masalalar ularning so'z-larida, xatti-harakatlarida yaqqol sezilib turadi.

Umuman, dramatik asarlarni ifodali o'qishga faqat yuqorida aytiganlarga suyanibgina qolmaslik kerak. Asardagi qahramonlarning ruhiy holatini tasav-vur qila bilish, ularning holatiga kira bilish kerak.

Bu parchani o'qishdan oldin asar va uning qahramonlari haqida umumiylar ma'lumot beriladi.

